

“Kompromatuzb” telegram kanalida “Prezident maktabi”ga o‘qishga kirish uchun imtihon topshiriyotgan 45 yoshli “qizaloq”! nomli xabarga munosabat.

Mazkur hodisa yuzasidan tushunmovchilikni oldini olish maqsadida qabul komissiyasi a‘zolari ishtirokida ota-onalar tomonidan tanlangan vakillar imtihon jarayonlariga kiritildi.

O‘rganish natijasida ushbu o‘quvchi Toshkent shahridagi maktablardan birining 4-sinf bitiruvchisi A.F. ekanligi aniqlandi va vakillarga isbotlab berildi (“Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan o‘quvchi haqidagi ma‘lumotlar taqdim etilmaydi).

Prezident ta‘lim muassasalari agentligi Axborot xizmati tomonidan ota-onalardan iborat vakillarning imtihon jarayonlarida ishtiroki video-tasvirga yozib olingan.

Bloger va ijtimoiy tarmoq faollaridan noxolis xabarlarni tarqatmaslikni so‘raymiz.